



THE ROLE OF THE WORK OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR IN THE FORMATION OF RATIONAL ATTITUDES TOWARDS NATURE IN YOUTH

Samad Khudaynazarov

associate professor, c.p.s.

National University of Uzbekistan

Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: nature, protection, ecology, compassion, rationality, spirituality, responsibility, ecological culture, ecological consciousness.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the significance and role of the king and poet Z.M. Bobur's works in shaping a rational attitude toward nature among young people.

Received: 04.03.25

Accepted: 06.04.25

Published: 08.04.25

YOSHLARDA TABIATGA OQILONA MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODINING O'RNI

Samad Xudaynazarov

dotsent, f.f.n.

O'zbekiston milliy universiteti

O'zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tabiat, muhofaza, ekologiya, mehr-oqibat, oqilonalik, ma'naviyat, mas'uliyat, ekologik madaniyat, ekologik ong.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, yoshlarda tabiatga oqilona munosabatlarni shakllantirishda shoh va shoir Z.M. Bobur ijodining o'rni va roli, ahamiyati har tomonlama keng tahlil qilingan.

РОЛЬ ТВОРЧЕСТВА ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА В ФОРМИРОВАНИИ У МОЛОДЕЖИ РАЦИОНАЛЬНОГО ОТНОШЕНИЯ К ПРИРОДЕ

Самад Худайназаров

доцент, к.ф.н.

Национальный университет Узбекистана

Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: природа, охрана, экология, сострадание, рациональность, духовность, ответственность, экологическая культура, экологическое сознание.

Аннотация: В данной статье всесторонне проанализировано значение и роль творчества царя и поэта З.М. Бабура в формировании у молодежи рационального отношения к природе.

KIRISH

Hozirgi davrda bashariyatni o'ylantirayotgan umumbashariy muammolardan biri ekologiyadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Tuproq suv va havoning haddan ziyod ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, o'simliklar va hayvonot dunyosidagi tashvishli o'zgarishlar ekologik muammoni taraqqiyotga yuz tutayotgan mamlakatlarning xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgan omillardan biriga aylantirmoqda"[1].

Yangi O'zbekistonda ekologik muvozanatni saqlash, ona tabiatga nisbatan jamiyatimiz kishilari va ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodlar qalbida mehr-muhabbat, shaydolik, rahm-shavqat, ma'naviy mas'uliyat tuyg'ularini kuchaytirishda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining o'rni beqiyosdir. Chunki bu ijodiy merosida xususan "Boburnoma"sida mumtoz milliy va umumbashariy ekologik qadriyatlar o'z ifodasini topgan. Unda ona tabiatga mehr, uning saxovati, ne'matlariga shukronalik, mulki va boyliklariga oqilonalik, tabiat qonunlari, mezon va me'yorlarga qat'iy amal qilish, hurmatda bo'lish, ma'naviy-axloqiy tartib va qoidalarga binoan ish ko'rish, insof va adolat asosida yondoshish zarurligiga oid yo'riqlar, ishoralar borki, bular yoshlar ekologik savodxonligini, bilimi va madaniyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgani holda o'zining falsafiy-didaktik teran mazmuni bilan o'lmasdir.

ASOSIY QISM

Buyuk shoir asarlarini o'qigan o'quvchi qalbida - tabiatga nisbatan kalondumog'lik, bepisandlik, loqaydlik, yulg'uchlik, shavqatsizlik, bemehrlik, tajavuzkorlik kabi salbiy illatlarga aslo o'rin qolmaydi. Uning o'rnida ona tabiatga nisbatan shaydolik, oshnolik, mehr, oqibat, oqlonalik, tabiat tabiiyligini muhofaza qilish kabi his-tuyg'u, ma'naviy mas'uliyat egallaydi. Modomiki shunday ekan, "Kasallikni davolagandan, uni oldini olgan ming bora yaxshi", deganlaridek, ma'rifatli jamiyatimizning ertangi yoshlarini mutasil kitobsevarlikka, Boburxonlikka, ilm-ma'rifatga o'rgatishimiz, ekologik savodxonligini muntazam oshirib borishimiz oqilonalikdir.

Z.M.Bobur ijodi kishilarni, jumladan yoshlarni Ona zamin tabiatga, uni boyliklariga va ne'matlariga nisbatan e'tiborli, mas'uliyatli bo'lishini talab etadi. Zero, ekologik savodsizlik, bilimsizlik, ma'naviy mas'uliyatsizlik, uquvsizlik, tadbirsizlik, loqaydlik va notovonlik bilan allaqachon global xarakterga kasb etib ulgurgan ekologik tahdidlar shiddatiga bardosh berib

bo'lmaydi. Shu boisdan ham unga nisbatan mehrli, mas'uliyatli yondoshishda ajdodlarimiz merosi, jumladan Z.M. Bobur ijodiy merosini ahamiyati katta.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ushbu mavzuni dolzarbligini quyidagicha asoslashimiz mumkin:

– **birinchidan**, Z.M.Bobur ijodiy merosida o'z ifodasini topgan adabiy badiiy ekologik qadriyatlar yoshlarda tabiatga nisbatan sog'lom munosabat, qarashlarini vujudga keltirishda o'ziga xos nodir va noyob fenomenlikni namoyon qiladi;

– **ikkinchidan**, Z.M.Bobur ijodiy merosidagi tabiat muhofazasiga oid qadriyatlar yoshlarda ekologiyaga zid salbiy holatlarni oldini olishda, unga qarshi kurashda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi;

– **uchinchidan**, Buyuk shoir ijodiy merosi yoshlar ma'naviy-madaniy olami, xususan ekologik ongi va madaniyati rivojiga ta'siri o'ziga xos imkoniyatlariga egalikni namoyon qiladi;

– **to'rtinchidan**, Z.M.Bobur ijodiy merosida xalqimizning tarixan shakllangan umumtamadduniy ekologik qarashlari, qadriyatlari nisbatan o'z ifodasini topgan. Bu esa, yoshlarni ekologik dunyoqarashini kengaytiradi hamda masalaga ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy, g'oyaviy-mafkuraviy ob'ektiv yondoshuvlarini yuzaga keltiradi;

– **beshinchidan**, Z.M.Bobur ijodiy merosidagi tabiatga nisbatan ma'naviy-axloqiy normalar yoshlarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan xarakterli;

– **oltinchidan**, Z.M.Bobur merosidagi tabiat muhofazasiga doir qarashlar yoshlarni ekologik ogohlikka, ekologik xatarlarni oldini olishdek ma'naviy mas'uliyatga da'vat etishdek funkcionallikni namoyon qiladi;

- **yettinchidan**, yoshlar qalbiga tabiatga nisbatan mehr-muhabbat, shaydolik, oshiftalik, xayrixoxlik tuyg'ularini singdirishda Z.M.Bobur lirik merosi ma'naviy-ruhiy rag'batlantiruvchi xususiyatga ega;

- **sakkizinchidan**, Z.M.Bobur ijodiy merosidagi ekologik qadriyatlar yoshlarni tabiatga nisbatan mehrsizlik, shafqatsizlik, loqaydlik, beparvolik, yulg'uchlik kabi illatlardan tiyadi va aksincha, uni Ona tabiatni ishonchli himoyachisiga aylantiradi;

- **to'qqizinchidan**, yoshlarda tabiatga nisbatan oqilona munosabatlarni shakllantirishda Z.M.Bobur ijodiy merosi fundamental negizlariga egaligini namoyon qiladi va boshqalar.

Ma'lumki, insoniyat tafakkuri taraqqiyotining ma'naviy-madaniy mezonlari tizimida badiiy adabiyot azal-azaldan ham muhim ahamiyat kasb etib, inson va tabiat munosabatlarini badiiy timsollarda aks ettirish orqali jamiyat kishilarini tabiatga, uning mulkiga bo'lgan munosabatlarini sog'lomlashtirishga, mo'tadillashtirishga, fikr-o'yi, dunyoqarashini gumanistik ezgulikka,

oqlonalikka yo'naltirishdek murakkab funksiyani bajarib kelgan. Shu nuqtai nazardan, Z.M.Boburning ijodiy merosi ham.

Mumtoz adabiyotlar sirasida bu meros mana necha asrlarkim inson-jamiat-tabiati munosabatlarini doimo yaxshilashga, tabiatni sevishga, undan bahra, zavq olishga, yosh avlodni tabiatga mehrli qilib tarbiyalashda o'zining beminnat xizmatini qilib kelmoqda. Aslida tabiatga sog'lom munosabatlarni, mehr-oqibatni Bobur mirzodan o'rganmoq kerak. Negaki shoh va shoir ham ijodda, ham hayotda tabiat mulkiga-mulk, boyligiga-boylik, chiroyiga-chiroy qo'shgan, qo'shishga undagan buyuk zotdir.

Shu bois, Z.M.Bobur ijodini yoshlar ekologik ongi va madaniyatining shakllantirishda sub'ektiv omil sifatidagi ta'sir imkoniyatlarini ilmiy asoslash, undan-da yoshlarimiz ekologik madaniy tafakkur darajasini oshirish yo'lida oqilona foydalanish ekologik tanglikni yumshatishga, yangilarini oldini olishda omil bo'ladi.

Ma'lumki, Z.M.Bobur ijodida milliy va umuminsoniy ekologik badiiy qadriyatlar uyg'unlashuvi mosdir. Ularning ekologiyalashish qonuniyatlarini tahlil qilish, yoshlar ekologik ongi va madaniyatini oshirishdagi imkoniyatlarini ob'ektiv o'rganish bugungi taraqqiyotimiz manfaatlariga mosdir. Zero, adabiyotga e'tibor-kelajakka e'tibordir. A.H.Cho'lpon keltirganidek: "Adabiyot yashasa - millat yashaydi", "Adabiyot masalasi-bu ma'naviyat masalasidir"[2], degan fikrlar shunchaki yo'lga aytilgan emas, yoki qanotli gap emas, balki obrazli qilib yozuvchi A.Qahhor tabiri bilan aytganda "Adabiyotni kuchi - atomdan kuchlidir". Ekologik tanglik eshik qoqib turgan pallada vaziyatni sog'lomlashtirishda muhim omillardan biri hisoblangan badiiy adabiyotning o'rni chindanda beqiyosdir. Chunki u inson qalbiga yo'l topishda va qadriyatlarni singdirishda nafaqat jozibador poetik til vositasi bilan balki timsoliy emotsional ekspressivligi, ellastikligi bilan ahamiyatlidir. Shu boisdan ham yoshlar ekologik ongi va madaniyatini shakllanishida sara va mumtoz badiiy adabiyotlar sirasida Z.M.Boburning badiiy-adabiy merosi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda tabiatga oqilona munosabatlarni shakllantirishda Z.M. Bobur ijodining o'rni borasida fikr yuritar ekanmiz, insoniyat tarixiy taraqqiyot davomida tazyiqu buzg'unchi, zo'ravon mafkuralardan xoli umuminsoniy g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan badiiy adabiyot insoniylikka xos sog'lom ekologik va insoniylik tabiatiga zid bo'lgan antiekologik faoliyatni yuksak badiiy obrazlilikda taqqoslab ko'rsatish orqali bashariyat kishilarini tabiatni sevish, uni asrab-avaylash kabi ma'naviy-axloqiy kamolotga da'vat etib kelgan.

Z.M.Bobur ijodida inson faoliyati tufayli sodir bo'lishi mumkin bo'lgan natijalarni avvalroq ijobiy va salbiy qirralarini badiiy buyoqdor timsollar orqali ko'rsatib, jamiyat kishilarining tabiat muhofazasi bilan bog'liq ogohlikka da'vat etish orqali, avlodlar ekologik ong va madaniy tafakkur taraqqiyotida muhim rol o'ynab kelgan.

Z.M.Bobur ijodidagi ekologiya bilan bog'liq qadriyatlarni tub ildizlari bizningcha "Avesto"[3], Moniy[4], Mazdak[5] ta'limotlariga, islomiy qadriyatlarga borib tutashgani tabiiydir.

Buyuk shoir ijodidagi "Bahor ayyomidur", "Yoz fasli"[6] kabi she'rlari, "Boburnoma"da o'z ifodasini topgan tabiatga oqilonalik, tabiat garmoniyasidan bahramandlik kabi qarashlar, go'zal ifodalar, ekologik qadriyatlar keyingi davr adabiyotida bu taqlid mavzulardagi ijodiyotga doyalik qilgan, deb aytishimiz mumkin.

Yoshlarda tabiatga oqilona munosabatlarni shakllantirishda Z.M.Bobur ijodining o'rni borasida fikr yuritar ekanmiz, aytishimiz joyizki, bu borada ijodkorning "Boburnoma"si alohida ahamiyatga ega. Bunda ijodkor o'zi ko'rgan, kechirgan, ishtirok etgan voqealari keng o'rin egallaganligi ham bunda muhim ahamiyatga egadir.

"Boburnoma" qomusiy asar bo'lib, Movarounnahr, Xuroson, Hindistonning o'ziga xos tabiati, o'simligi hamda hayvonot dunyosini sodda til va yorqin bo'yoqlarda tasvirlashi, o'z davrining tarixi, jug'rofiyasi, madaniyati, san'ati, tabiatshunosligi, etnografiyasi, siyosati va boshqa sohalarga oid ma'lumotlarga boyligi bilan jahon adabiyoti va ilm-fani xazinasiga qo'shilgan noyob durdonadir.

Asar, o'z ilmiy mohiyati, uslubiy ravonligi, badiiy timsollarga mo'lligi va ona tabiat go'zalligini his qilish, avaylab-asrash, boyligiga-boylik qo'shish kabi g'oyaviy ahamiyati bilan ham asrlar osha kitobxonda tabiatga mehr-muhabbat uyg'otishga, yosh avlod ekologik ongi va madaniy saviyasini oshirishga beminnat xizmat qiladigan milliy va umuminsoniy qimmatli manba bo'lib kelmoqda.

Asarning bosh qahramoni va muallifi Bobur tabiatni sevguvchi, uning go'zalliklarini chuqur his qiluvchi, sinchikov inson bo'lgan. Afg'onistonning Dashti Shayx qirlari etagida lolaning 33 xilini aniqlab yozib ketgan. "Bu domonada rango-ranga har nav' lola bo'lur. Bir qatla sanattim, o'ttuz ikki-o'ttuz uch nav' g'ayri mukarrar lola chiqti. Bir nav' lola bo'lurkim, andin andak qizil gul idi kelur, lolai gulbuy der eduk. Dashti shayxta bir parcha yerda bo'lur, o'zga yerda bo'lmas"[7]. Aytishlaricha, yurtimizga xushbo'y atirgulni Hindistondan birinchi bo'lib Bobur keltirgan ekan[8].

Tabiat muhofazasi bilan bog'liq milliy va umuminsoniy qadriyatlarni namoyon bo'lish xususiyatlarini Z.M.Bobur ijodidagi ekologik madaniyat kontekstida o'rganish milliy falsafaning dolzarb muammosi bo'lib, yoshlarda tabiatga oqilona munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga egadir.

Z.M.Bobur ijodiyoti taraqqiyotida ekologik muammolarga munosabatni tahlil qiladigan bo'lsak, unda umuminsoniy mazmun va milliy kolorit ustuvorligini ko'ramiz. Bu bir tomondan, ekologik muammolar tobora globallashib, turli xalqlar badiiy adabiyotida, unga nisbatan umumiy munosabat shakllanayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, bir xalq ijodkorlari yaratgan

badiiy ekologik qadriyatga boshqalari ehtiyoj sezib obrazlariga, syujetlariga murojaat qilayotganligida o'z ifodasini topmoqda.

Z.M.Bobur ijodiyoti yoshlarda tabiatga gumanistik, axloqiy munosabatini shakllanishiga yaqindan yordam beradi. Mudomki u yosh qalbga tabiatga nisbatan rahm-shafqat, dardkashlik, oshnolik, komillikka da'vati, his-tuyg'usini beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda tabiatga oqilona munosabatlarni shakllantirishda Z.M.Bobur ijodi muhim o'rin tutadi. Shu bois, bizningcha

birinchidan, bu ijodiy merosni yoshlar orasida yanada keng ommalashtirish borasida kompleks dasturini ishlab chiqish, mavjudlarini yanada takomillashtirib borish zarur;

ikkinchidan, yoshlardan ekologik madaniyatni komol toptirishda Z.M.Bobur ijodining rolini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shu sabab, buyuk shoir ijodining o'rganishni tashkiliy-amaliy, metodologik masalalariga doir ilmiy tadqiqot ishlarining sifati va miqdorini oshirish, bu boradagi moddiy va ma'naviy rag'batlantirish imkoniyatlarini qidirib topish zarur;

uchinchidan, Z.M.Bobur ijodida ilgari surilgan tabiat muhofazasiga oid g'oyalar ekologik tanglikdan chiqishni, yoshlar ekologik savodxonligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi;

to'rtinchidan, Z.M.Bobur ijodini yoshlar ekologik madaniyati shakllanishiga ta'sirini madaniyat nazariyasi va tarixi nuqtai nazardan tahlil qilish, badiiy adabiyotning ekologiya sohasiga aloqadorligini yaxlit-tizimda o'rganish darkor;

beshinchidan, yoshlarda tabiatga oqilona munosabatlarni shakllantirishda Z.M.Bobur ijodi alohida fenomendir;

oltinchidan, Z.M.Bobur ijodidagi tabiat tasvirlari, tabiat muhofazasiga doir konkret-tarixiy tajriba, badiiy timsollarni turfa xarakteri, turli janrlardagi ifodalar yoshlar tabiatga o'zigacha ta'sir ko'rsatadi;

yettinchidan, Z.M.Bobur ijodini anglash, ijodkorning o'ziga xos iste'dodi va mahorati, tabiatga bo'lgan mehr - oqibatini bilish, bir tomondan olamshumul ekologik xatarini oldini olishga, boshqa tomondan yoshlarda tabiatga oqilona munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi;

sakkizinchidan, yoshlarda tabiatga oqilona munosabatlarni rivojlantirib borishda Z.M.Bobur ijodini roli bundan keyin ham turli ijtimoiy-gumanitar fanlarning tutash "chorrahalarida" muhim ahamiyat kasb etib qoladi;

to'qqizinchidan, yoshlarda tabiatga oqilona munosabatlarni shakllantirishda Z.M.Bobur ijodiyotni o'rni jahon va umummilliy taraqqiyot manfaatlariga mos keladi;

o‘ninchidan, mamlakatimiz aholisi katta qismini yoshlar tashkil qilishini hisobga olib, tabiatga oqilona munosabatlarni rivojlantirib borishda Z.M.Bobur ijodiyoti rolini oshirishni nazariy, metodologik asoslarini rivojlantirishga e‘tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Bizningcha, yuqoridagi takliflarni amalga oshishi bir tomondan yoshlarda tabiatga oqilona munosabatlarni shakllantirsa, ikkinchi tomondan shoh va shoir Z.M.Bobur ijodiyotini jahon miqyosida yanada keng yoyilishiga yanada ko‘proq imkoniyatlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. –B.389
2. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta‘minlash – bizning oliy maqsadimiz. – T. 17. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – B. 249.
3. Homidov H. “Avesto” fayzlari. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq meros, 2001. –B. 18.
4. Rahmonov N., Boltaboev H. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari.1-jild. –Toshkent: Fan, 2003.-B. 35
5. S.Otamuratov, S.Husanov, J.Ramatov. Ma‘naviyat asoslari. (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi , “O‘AJBNT” markazi, 2002. –B. 90.
6. Bobur Z.M. Sochining savdosi tushti: She‘rlar /–Toshkent: Sharq, 2007.-288 b.
7. Bobur Z. M. Boburnoma. –Toshkent: Yulduzcha, 1989. – 368 b.
8. Valixanov M.N. Tabiatshunoslik asoslari. –Toshkent: M.Ulug‘bek nomidagi O‘zMU bosmaxonasi. 2004. –B. 52-53.